

O‘ZBEKISTON VA UNING HUDUDLARIDA TABIIY XUSUSIYATLI FAVQULOTDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA ULARNING OQIBATLARINI BARTARAF ETISHNING BUGUNGI HOLATI.

Rasulov Orifjon Abidjanovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi.

Annotatsiya: Butun dunyo, hususan yurtimizda uchrab turadigan tabiiy va texnogen ofatlarni oldini olish va bartaraf etish muhim vazifa bo‘lib, bu yo‘nalishda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar va ularning natijalari haqida ozgina bo‘lsada malumot berib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: qonun, Prezident farmoni, statistik malumot, Toshkent 1966 yil, Sardoba 2020 yil.

Hozirgi vaqtda mintaqamizda hamda jaxonda bo‘layotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligiga taxdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar, davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sayi-harakatlar inson qadri uchun” degan ustivor tamoyil asosida yanada takomillashtirish vazifasini yublamoqda.[1]

Darhaqiqat davlat o‘rganlarining sergakligi tufayli aniqlangan tabiiy yoki texnogen tusdagi ofatlar va halqni o‘z vaqtida ogohlantirilishi tufayli qurbonlar va zarar sonini kamaytirishga erishganligini o‘tmishda bir necha bor kuzatganmiz. Halqimizning qanchalik birdam va hamjihat ekanligini nafaqat uning bolajonligi, yoki mehmondo‘stligidan balki, hursandchilig-u boshiga kulfat kelgan davirlarida yolg‘iz qoldirmasliklaridan ko‘rishimiz mumkin.

Statistika malumotlariga ko‘ra 2005-2022 yillarda 71 mingga yaqin o‘zbekistonlik tabiiy ofatlardan, 3,5 ming kishi texnogen ofatlardan jabr ko‘rgan[2]. Undan tashqari yurtimiz hududida kuzatilgan ko‘plab fojialarning eng muthishlaridan biri bo‘lmish 1966 yil 26 aprelda Toshkentda ro‘y bergan zilzila haqida yurtdoshlarimiz orasida eshitmagan inson bo‘lmasa kerak. Ushbu zilzila oqibatida 2 million metr kvadratdan ziyod turar-joy maydoni, 236 ta ma‘muriy bino, 700 ga yaqin savdo va ovqatlanish shoxobchalari, 26 ta kommunal xo‘jalik korxonasi, 180 ga yaqin o‘quv yurti, 8 ming o‘rinli maktablar, 36 ta madaniy-maishiy muassasalar, 185 ta tibbiyot va 245 ta sanoat korxonasi binolari jiddiy talofat ko‘rdi. 78 ming oila yoki 300 ming odam (o‘shanda Toshkentda yarim million aholi istiqomat qilgan) boshpanasiz qoldi[3]. Zilzila oqibatida ko‘rilgan ushbu talofatlarni bartaraf etishda nafaqat O‘zbek ahli, balki ayrim davlatlar halqlari ham ishtirok etgani, toshkentliklarga yordam berish maqsadida jamg‘armalar tashkil qilgani taqsiq loyiq. O‘sha vaqtda SSSRda pul

birligi rubl bo'lgan. Mazkur jamg'armaga 10 million rubldan ortiq pul kelib tushgan. Mablag'ning 5,5 million rubli yakka tartibdagi turar-joy binolarini ta'mirlash uchun tuman ijroiya qo'mitalari tomonidan egalariga ajratildi. Pulning bir qismi shaharda o'yin maydonlari qurish, odamlar joylashtirilgan vaqtinchalik lagerlarda bepul ovqatlanish va boshqalarga yo'naltirildi. 15 mingdan ortiq oila o'z roziligi bilan O'zbekistonning boshqa hududlari yoki qo'shni davlatlarga joylashtirildi[3]. Toshkent shaxrini qayta tiklash uchun SSSRga a'zo davlatlar quruvchilar kelib hizmat ko'rsatgan, hususan Litva, Belarusiya, Boshqirdiston, Tula, Moskva, Tolyati, Kiyev, Kaluga va h.k. Bu voqeani eslashimizga sabab esa tabiiy yoki texnogen ofatlar nafaqat o'sha hudud, balki mamlakat va dunyo miqyosidagi mammoga aylanishi mumkin.

Shu sababdan bunday hodisalarni o'z vaqtida oldini olish muhim vazifa bo'lib olimlarning izlanishiga sabab bo'lib turibdi. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasida** "O'zbekiston deb atalmish katta va inoq oilaning har bir a'zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida tinimsiz izlanyapmiz." [4] deya ta'kidlab o'tkan so'zlari bu mavzu yuzasidan yanada ko'proq ishlashimiz uchun ilhom manbayi bo'lib, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni belgilab berdi.

Ushbu farmon bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologik xizmat markazi tarkibiy tuzilmalari bilan birgalikda;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G.A.Mavlonov nomidagi Seysmologiya institutining tezkor xabarlar xizmati va seysmik xavfning seysmologik monitoringi va prognostik monitoring respublika tarmog'i. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga belgilangan tartibda o'tkazildi.

Ushbu o'zgarish favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirib, uning vazifasini bajarishda bir-qator yengilliklar yaratib berib, shu bilan birgalikda, favqulodda vaziyatlar vazirligi mas'ul bo'lgan ishlar naqadar muhim ekanligini ko'rsatib, ushbu vazirlik hodimlarining mas'uliyatini oshirishga hizmat qildi.

Shuni ham unutmashimiz lozimki, "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotni yashirish, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etish taqiqlanadi. Davlat favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish holati, aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar, prognoz qilinayotgan yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ulardan muhofazalanish usullari to'g'risida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan maxsus texnika vositalari orqali aholini o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor qilishi shart." [5] deb qonunchilikdada ko'rsatilgan bo'lib ushbu talablarni bajarmaslik, jazo muqarrar ekanligini anglatadi.

Bunday o'zgarishlar o'z natijasini amalda namoyon bo'lishiga Sardobada yuz berga texnogen ofat haqida aytib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

2020 yil 1 may kuni O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati Sardoba suv omborining 6-piket devorida yorilish tufayli atrofdagi ofat 10ta mahalla fuqarolar yig'ini, 23ta aholi punkti, hududlardagi 4711ta turar va 277ta noturar joy obektlariga hamda 30 718 gektar ekin maydonlariga zarar yetkazgan. Fojiya sodir bolgan kuni bosh vazir Abdulla Aripov bilan birgalikda Favqulodda vaziyatlar vazirligi raxbariyati xamda Ichki ishlar boshqarmalari, Milliy gvardiya va boshqa tegishli tashkilotlar raxbarlari yetib borib, evakuatsiya tadbirlarini tashkillashtirish, favqulotda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishgani haqida habar berilgan[6].

Ushbu fojiya talofatlarsiz va qurbonlarsiz o'tmagan bo'sada, o'z vaqtida ko'rilgan chora tadbirlar tufayli bu raqamlarni bir-necha barobar qisqartirilishiga erishilgan. Tabiiy texnogen ofatda ko'rilgan talofatlarni bartaraf etish, axoli punktlarini taribga keltirish hamda axoliga yordam ko'rsatish maqsadida davlat rahbari tomonidan kuch tuzilmalar safarbar etildi.

Birgina Mudofaa vazirligini oladigan bo'lsak, Sirdaryo viloyatida sodir bo'lgan texnogen ofat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha – xududlarni tozalash, fuqarolarga ko'maklashish, xududlarni dizenfeksiya qilish, texnogen ofatdan jabrlangan fuqarlarga psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek markaziy harbiy klinik gospitali tomonidan jixozlangan dala gospitalarida fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish kabi vazifalarni bajardilar.

Evakuatsiya va ofat oqibatlarini bartaraf etishga Sirdaryo viloyati FVBdan 430 shaxsiy tarkib va 5 avtotexnika, Jizzax viloyati FVBdan 120 shaxsiy tarkib, 6 avtotexnika, MVBKRKdan 60 shaxsiy tarkib, 6 avtotexnika, Milliy Gvardiyadan 276 shaxsiy tarkib va 43 avtotexnika xamda FVDT xizmatlari jalb etilgan. Oqibatda Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridagi 24 ta mahalladan 90 mingga yaqin fuqaro zudlik bilan xavfsiz hududga evakuatsiya qilindi.

4 nafar fuqaro halok bo'lgan 1 nafar bedarak yo'qolgan deb habar berdi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 may kuni videoselektor yig'ilishida.

Xulosa va taklif o'rnida shuni takidlashimiz lozim:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyovning "... **Lekin qamrov va tezkorlikni oshirish kerak. Odamlar qachon o'zini xavfsiz, erkin sezadi? Qachon turist ko'payadi? Jinoyatchilik yo'q bo'lsa, xavfsizligiga ishonsa, ko'chada tartibdan tozalikkacha-hammasi ta'minlangan bo'lsa. Buning uchun barcha xuquq-tartibot idoralari ma'lumotlarini bir mushtdek integratsiya qilish kerak. Bu integratsiya kirib borgan har bir tarmoq xodimlarining dunyoqarashini o'zgartirish lozim.**"[7] deb ta'kidlab o'tganlar.

Demak, mamlakatda xar qanday turdagi ofat sodir bo'lganda nafaqat kuch tuzilmalari, balki barcha davlat tashkilotlari hamda aholi faollari ham jonbozlik ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

Taklif o'rnida yana bir holatni keltirib o'tishimiz lozim. Fuqarolarga yordam ko'rsatishda "SoS" ya'ni, birgina tugmani bosish orqali, fuqaro har qanday yordam olishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni yaratishimiz kerak bo'ladi.

Yurtimizda yaratilgan shar-sharoitlardan foydalangan holda Prezidentimiz tomonidan oldimizga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarishimiz kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan ofatlarni oldini olishimizga va halqimiz osoyishtaligini saqlashimizga yordam beradi. Bu yo'lda biz ilm ahli o'z hissamizni qo'shish uchun tinimsiz ishlashimiz va halqimiz hayotiga yangi innovatsiyalarni olib kelishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 29-ноябр кундаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-27-сонли фармони //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.11.2021 йил. (Мурожаат қilingan сана 2023-йил 5-март).
2. uz.kursiv.media sayti 3-aprel 2023yilgi nashridan. <https://uz.kursiv.media/uz/2023-04-03/ozbekiston-markaziy-osiyoda-tabiiy-ofatlar-soni-boyicha-birinchi-uchlikka-kiradi/>
3. Zafarbek Solijonov 26-aprel 2020 yil qalampir.uz saytidagi maqolasidan
4. <https://president.uz/oz/lists/view/588> “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ning rpezident.uz saytida 01.06.2017 da nashr etilgan farmoni.
5. Prezident tomonidan 17.08.2022 yildagi “Aholini va hududlarnn tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi **O'RQ-790**-son Qonunidan. 17.11.2022 dan kuchga kirgan.
6. http://daryo-uz.com/crp/AbdullaAripovtoskinbulganjojgaetibborganSirdaredagihodisabujicaan gima_lumotberildi_crp/
7. 2022- yil 3- may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ichki ishlar vazirligining Situatsion-tahliliy so'zlagan nutqi. KUN.UZ saytidan olingan. (Murojaat qilingan sana 2023- yil 05- mart).